



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

Ta'lim muassasalarida yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ishlarini sifatli amalga oshirishni tashkil qilish to'g'risida

Xalq ta'limi muassasalarida yangi 2020-2021-o'quv yiliga tayyorgarlik ishlarini sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash maqsadida **buyuraman**:

1. Xalq ta'limi muassasalarini yangi 2020-2021-o'quv yiliga tayyorlash bo'yicha Harakat dasturi (bundan buyon matnda Harakat dasturi deb yuritiladi) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Darsliklar va o'quv-metodik majmualar yaratishni muvofiqlashtirish sho'basi (U.Xamutov) yangi o'quv yili uchun darsliklarni chop etish, ularni joylarga yetkazish va qayta taqsimlash choralarini ko'rsin.

3. Ma'naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasi (A.Tagayev) ta'lim muassasalarini yangi o'quv yiliga tayyorlash bo'yicha maktab foyesi va koridorlarni bezatish ishlarini tashkillashtirsin.

4. Xalq ta'limi muassasalari mulkidan samarali foydalanishni muvofiqlashtirish bo'limi (B.Xasanov) mavjud jihozlardan samarali foydalanish va 2020-yilda qurilish va ta'mirlash ishlari yakuniga yetkazilgan umumta'lim obyektlariga zarur bo'lgan jihozlarni yetkazib berilishini ta'minlash choralarini ko'rsin.

5. Maktabdan tashqari ta'lim, sport va turizmni tashkil etish boshqarmasi (M.Karabayev) "Barkamol avlod" bolalar maktablarini yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ishlarini nazorat qilsin.

6. Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi (A.Xasanov) avgust oyiga qadar vakant lavozimlarni qayta xatlovdan o'tkazish va vakant lavozimlarga pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarini tugallagan yosh, tajribali va munosib rahbar xodimlarni tayinlash choralarini ko'rsin.

7. Ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi bo'limi (Q.Alimardonov) 2019-2020-o'quv yili 9-11-sinf bitiruvchilarini ta'limning keyingi bosqichlariga qamrab olinishini nazorat qilsin.

8. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (E.Murodov) vazirlik tasarrufidagi ta'lim muassasalarini yangi o'quv yiliga tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan ishlarni tegishli boshqarma va bo'limlar bilan birgalikda muvofiqlashtirib borsin va ularning bajarilishi monitoringini yuritsin.

9. Sog'lom ovqatlantirish va tibbiy xizmat ko'rsatishni muvofiqlashtirish sho'basi (X.Yuldashev) ta'lim muassasalarida ovqatlantirishni tashkil etilishi

hamda tibbiy xizmat ko'rsatilishini belgilangan me'yorlar asosida tashkillashtirish choralarini ko'rsin.

10. Xalq ta'limi muassasalarini qurilish, ta'mirlash va jihozlashni muvofiqlashtirish boshqarmasi (S.Qutliyev) investitsiya dasturiga kiritilgan umumta'lim obyektlarida olib borilayotgan qurilish va ta'mirlash ishlarining holatini nazorat qilib borsin.

11. Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq ta'limi vaziri, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi ta'lim muassasalari rahbarlariga:

ikki kun muddatda mazkur buyruq va Harakat dasturini barcha xalq ta'limi boshqaruv idoralari hamda har bir ta'lim muassasalari rahbarlariga yetkazish, ijrosining sifatli va o'z muddatlarida ta'minlanishini tashkil etish hamda nazoratga olish;

yangi o'quv yiliga qadar:

Harakat dasturida belgilangan vazifalarning barcha ta'lim muassasalarini rahbariyati tomonidan o'z muddatida bajarilishini doimiy nazoratga olish;

yangi 2020-2021-o'quv yili uchun ta'lim muassasalari o'quvchilarini darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ta'minlash choralarini ko'rish;

ta'lim muassasalarini yangi o'quv yili va kuz-qish mavsumiga tayyorlash ishlarini to'liq yakunlash;

ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini saqlanishini nazorat qilish va tayyor holga keltirish;

ta'lim muassasalarini yangi 2020-2021-o'quv yiliga tayyorgarligi hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har hafta yakunida vazirlikning Umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasiga ma'lumot taqdim etib borish;

joriy yilning 20-avgustiga qadar:

ta'lim muassasalari hududlarini obodonlashtirish, issiqlik tizimini ta'mirlash, qozonlarni yangisiga almashtirish;

investitsiya dasturi doirasida qurilish ishlari olib borilayotgan umumta'lim muassasalari binolarida qurilish-ta'mirlash ishlarini sifatli bajarilganligi va foydalanishga qabul qilishda obyektga chiqqan holda pudrat tashkilotlari bilan birgalikda ko'rib, kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rib borish;

ta'lim muassasalaridagi vakant soatlarni ko'rib chiqish hamda olis va chekka hududlardagi ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qoplash;

yuqorida qayd etilgan vazifalarning joylarda o'z vaqtida sifatli bajarilishini shaxsan nazoratga olgan holda bu borada ta'lim muassasalari rahbarlarining mas'ulligini oshirish vazifalari topshirilsin.

12. Vazirlik devonxonasi (X.Rahimbayeva) bir kun muddatda mazkur buyruqni va harakat dasturini barcha xalq ta'limi boshqaruv idoralari rahbarlariga yetkazsin.

13. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Vazir

Sh.Shermatov

Toshkent sh.,
2020-yil 28 may,
135-son

O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirining
2020-yil " 28 " -maydagi
135 -son buyrug'iga
ILOVA

**Xalq ta'limi muassasalarini yangi
2020-2021-o'quv yiliga tayyorlash bo'yicha
Harakat dasturi**

«TASDIQLAYMAN»


_____ tuman(shahar)

_____ XTB mudiri


_____ (F.I.Sh.)

2020-yil ____ iyun


_____ tumani _____-sonli maktabni
2020-2021-o‘quv yiliga tayyorlash bo‘yicha
Harakat dasturi



1. O'quv binolarini ta'mirlash va maktab hududini obodonlashtirish



2. Sinflarni zarur jihozlar bilan ta'minlash



3. O'quvchilarni darsliklar, o'qituvchilarni uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlash



4. O'quv jarayonining pedagogik va metodik ta'minotini yaxshilash



5. O'quv jarayonida AKTdan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish



6. Ta'lim sifatini yaxshilash yuzasidan chora-tadbirlar rejasi

1. O'quv binolarini ta'mirlash va maktab hududini obodonlashtirish

T/r	Bajariladigan ishlar	Muddati	Mas'ullar
1	Maktabni yangi o'quv yiliga tayyorlash yuzasidan amalga oshirishi zarur bo'lgan ishlarni aniqlab, reja ishlab chiqish	14-iyun	Maktab direktori
2	Maktabni yangi o'quv yili va kuz-qish mavsumiga tayyorlashda xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining vazifalarini belgilash	14-iyun	Maktab direktori, Direktorning xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosari
3	Binoning sovuq suv tizimini ta'mirlash	10-iyul	Direktorning xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosari
4	Deraza oynalarining singan qismlarini almashtirish	15-iyul	Direktorning xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosari
5	Energiya resurslari o'lchov asboblari ko'rikdan o'tkazish	25-iyul	Direktorning xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosari
6	Yong'in xavfsizligi tizimini ta'mirlash va jihozlash	25-iyul	Direktorning xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosari
7	Bino elektr ta'minoti tizimini tekshirish, ta'mirlash va tejanakor lampalarni o'rnatish	30-iyul	Direktorning xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosari
8	Binoning isitish tizimini ta'mirlash (bosim ostida yuvish va h.k.)	1-avgust	Direktorning xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosari
9	Maktab binosining tom qismini ta'mirlash	1-avgust	Direktorning xo'jalik ishlari bo'yicha o'rinbosari
10	Daraxtlarga shakl berish, irrigatsiya tarmog'ini tozalash	30-iyun	Maktab direktori, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

11	Maktab hududini obodonlashtirish	10-iyul	Maktab direktori, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
12	Maktabning foye, koridor va sinf xonalarini joriy ta'mirlash	20-iyul	Maktab direktori, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
13	Maktab oshxonasi, sport va faollar zallarini joriy ta'mirlash	20-iyul	Maktab direktori, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
14	Maktab sanuzel (hojatxona)larini joriy ta'mirlash	20-iyul	Maktab direktori, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
15	Maktabning yangi o'quv yiliga tayyorligi bo'yicha mutasaddi tashkilotlar bilan dalolatnoma imzolash	1-avgust	Maktab direktori, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
16	Maktab sport maydonchasini tartibga keltirish	10-avgust	Maktab direktori, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi
17	Maktab binosida sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash maqsadida mutaxassislar tomonidan to'liq tozalash va dezinfeksiya tadbirlarini amalga oshirish	20-avgust	Maktab direktori, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
18	Maktab xodimlari, o'qituvchilari, o'quvchilari o'rtasida yuqumli kasalliklarni oldini olish bo'yicha barcha chora-tadbirlarni (tozalash va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun kerakli vositalar) ko'rish	25-avgust	Maktab direktori, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, maktab hamshirasi

2. Sinfarni zarur jihozlar bilan ta'minlash

T/r	Bajariladigan ishlar	Muddati	Mas'ullar
1	O'quvchi parta va stullarini xatlovdan o'tkazish va joriy ta'mirlash	15-iyul	Maktab direktori, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, sinf rahbarlari
2	Maktab foyesi va koridorlarni belgilangan tartib asosida jihozlash	15-avgust	Maktab direktori, ma'naviy-ma'rifiy va xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari
3	Sinf xonalarini belgilangan tartib asosida jihozlash	15-avgust	Maktab direktori, ma'naviy-ma'rifiy va xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari, sinf rahbarlari
4	Biologiya kabinetini va laboratoriya xonasini jihozlash bo'yicha zarur choralarni ko'rish	15-avgust	Maktab direktori, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, biologiya fani o'qituvchisi
5	Kimyo kabinetini va laboratoriya xonasini jihozlash bo'yicha zarur choralarni ko'rish	15-avgust	Maktab direktori, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, kimyo fani o'qituvchisi
6	Fizika kabinetini va laboratoriya xonasini jihozlash bo'yicha zarur choralarni ko'rish	15-avgust	Maktab direktori, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, fizika fani o'qituvchisi
7	Texnologiya xonasini jihozlash bo'yicha zarur choralarni ko'rish	15-avgust	Maktab direktori, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, texnologiya fani o'qituvchisi

3. O'quvchilarni darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlash

T/r	Bajariladigan ishlar	Muddati	Mas'ullar
1	Maktab kutubxonasi fondini xatlovdan o'tkazish hamda badiiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan boyitish	1-avgust	Maktab kutubxona mudiri, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
2	Fan o'quvchilari uchun uslubiy qo'llanmalar va didaktik vositalar, multimediali resurslar zaxirasini shakllantirish	10-avgust	Maktab kutubxona mudiri, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
3	1-sinf o'quvchilari uchun "Prezident sovg'alari" to'plamlarini qabul qilish	10-avgust	Maktab direktori, kutubxona mudiri
4	Maktab kutubxonasidagi darsliklarni xatlovdan o'tkazish, yangi o'quv yili uchun chop etilgan darsliklarni qabul qilish, sinflarga taqsimlash	20-avgust	Kutubxona mudiri
5	Maktabdagi o'quvchilar soniga nisbatan darsliklarga bo'lgan ehtiyojni qoplash choralarini ko'rish	20-avgust	Kutubxona mudiri

4. O'quv jarayonining pedagogik va metodik ta'minotini yaxshilash

T/r	Bajariladigan ishlar	Muddati	Mas'ullar
1	O'quv yili yakunlari yuzasidan fan o'qituvchilarining faoliyatini tahlil qilish va hisobot tayyorlash	20-iyun	Maktab direktori, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
2	Fan o'qituvchilari faoliyatining tahliliy ma'lumotlarini pedagogik kengashda muhokama qilish	25-iyun	Maktab direktori
3	Fan o'qituvchilari faoliyati tahlili natijalari bo'yicha mehnat shartnomalarini ko'rib chiqish	31-iyul	Maktab direktori
4	Yangi o'quv yili uchun o'quv rejani tasdiqlash	1-avgust	Maktab direktori, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
5	Yangi o'quv yiliga mo'ljallangan maktab ish rejasini ishlab chiqish	1-avgust	O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
6	Dars taqsimotiga asosan tarifikatsiya tuzish	10-avgust	Maktab direktori, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
7	Pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'rish	20-avgust	Maktab direktori
8	Maktab o'qituvchilari o'rtasida dars soatlarini taqsimlash, o'quv reja va dasturlaridagi o'zgarishlarning mazmun-mohiyatini o'qituvchilarga yetkazish	20-avgust	O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, metod birlashma raislari
9	Fanlar bo'yicha metod birlashmalar faoliyatini tashkil etish	20-avgust	Fan bo'yicha metod birlashma raislari
10	Yangi o'quv yiliga tayyorgarlik holatini pedagogik kengash va fan metod kengashlarida muhokama qilish	25-avgust	Maktab direktori, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, metod birlashma raislari

5. O'quv jarayonida AKTdan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish

T/r	Bajariladigan ishlar	Muddati	Mas'ullar
1	Maktabning kompyuter texnikasini xatlovdan o'tkazish va ta'mirlash choralari ni ko'rish	5-iyun	Maktab direktori, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, informatika fani o'qituvchisi
2	Axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalangan holda ochiq darslarni o'tish rejasini tuzish	20-iyun	Maktab direktori, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, informatika fani o'qituvchisi, metod birlashma raislari
3	Maktab pedagog jamoasining axborot kommunikatsion texnologiyalar bo'yicha savodxonlik darajasini so'rovnomaga asosida aniqlash	20-iyun	Maktab direktori, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, informatika fani o'qituvchisi
4	Maktab pedagogik jamoasining axborot kommunikatsion texnologiyalar bo'yicha savodxonlik darajasini oshirish bo'yicha qisqa muddatli kurslar tashkil etish	10-avgust	Maktab direktori, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, informatika fani o'qituvchisi
5	Ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida darslarni tashkil etish yuzasidan namunaviy taqdimotlar o'tkazish	20-avgust	Metod birlashma raislari, informatika fani o'qituvchisi
6	1-sinf o'quvchilari haqidagi ma'lumotlarni hamda yozgi ta'til davridagi o'quvchilar harakati haqidagi ma'lumotlarni elektron bazaga kiritish	5-sentabr	Maktab direktori, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

6. Ta'lim sifatini yaxshilash yuzasidan chora-tadbirlar

T/r	Bajarilgan ishlar	Muddati	Mas'ullar
1	Yangi o'quv yilida pedagog kadrlarning malakasini oshirish rejasini ishlab chiqish va buyurtmalar tayyorlash	20-iyun	Maktab direktori, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
2	Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinflarida dars beradigan o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish, ularga takomillashtirilgan o'quv dasturlarini tushuntirish	1-avgust	Maktab direktori, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
3	Maktab o'qituvchilarining o'z ustida ishlashlari yuzasidan maqsadli vazifalarni belgilab olish	30-iyun	Maktab direktori, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
4	Maktab o'qituvchilarining tizimda tatbiq etilayotgan yangi xalqaro tajribalar (PISA, TALIS, OPEN EMIS) haqida treninglar o'tkazish	20-avgust	Respublika ta'lim markazi, maktab direktori, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
5	An'anaviy Avgust kengashlarining sho'ba yig'ilishlari tavsiyalarini maktab pedagogik jamoasiga yetkazish	30-avgust	Maktab direktori, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
6	Fan to'garaklari yo'nalishlarini belgilash, mas'ullarni tayinlash va jadvalini tasdiqlash	30-avgust	Maktab direktori, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
7	Simflarning o'quvchilar bilan to'ldirilishini qayta ko'rib chiqish	20-avgust	Maktab direktori, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari
8	Amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan tuman xalq ta'limi bo'limiga hisobot berish	Haftaning har shanba kuni	Maktab direktori, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari